

KASBIM – MENING FAXRIM

Abduvasiyeva Xadisaxon Odilovna

Andijon viloyati Paxtaobod tumani

1-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

E-mail: abduvasiyevaxadisa@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson hayot yo'li davomida egallagan kasb kori haqida qisqacha ma'lumotlar bilan tanishib o'tasiz. Kasb insonning umrini sermazmun qiluvchi shunday mashg'ulot turiki unda inson jamiyatda tutgan o'rni hamda mevqeini his etadi.

Kalit so'zlar: Kasb, maqsad,matonat, g'urur-iftixor, o'ziga bo'lgan ishonch, ma'suliyat, zavqlanish.

Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan ekan: "Hayotda siz uchun eng sevimli bo'lgan kasbni tanlang va siz bir umr ishga bormaysiz".

Agar kishi o'z sevgan kasbida ishlayotgan bo'lsa , u hech qachon har ertalab o'zini ishga ketayapman deb hisoblamaydi.O'z sevgan kasbi bilan shug'ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat , rag'bat hamda ma'naviy ozuqa beradi.O'zi yoqtirgan ishini qilayotgan kishi vaqt qanchalar tez o'tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi.Albatta bunda inson o'zi qiziqqan sohada ta'lim olib aynan ushbu sohada ishlashga harakat qilishi , o'z sevgan kasbida muvaffaqiyatga erishishga harakat qilishdan hech qachon to'xtamasligi lozim.

Kasbiga mexrini bergan insonlarni barcha sohalarda uchratish mumkin. Aslida insonni halovatda yashashi uchun ko'p narsani keragi yo'k. Tinch totuv xayot, mexribon oilasi, o'zi qadrlaydigan kasb va mexnati ortidan turmush farovonligi bo'lsa bas. Kasblarning katta-kichigi yoki yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Faqat o'z kasbiga sadoqat, kasbning nozik jixatlarini o'rganish, shu kasbning yetuk egasi bo'lish muximdir.

Jamiyatning rivoji va kelajagi uchun eng zaruriy kasblardan biri bu o'qituvchilik sohasidir. Sohada mexnat qilish ayniqsa raxbarlik qilish uchun kishidan chuqur bilim yuqori saviyadagi malaka kasb etikasi va muomala madaniyati talab etiladi.

Maktabni tamomlab katta hayot ostonasida turib o'z hayot yo'lini tanlash bilan birga o'zi sevgan kasbni tanlash inson hayotini sermazmun o'tishini ta'minlaydi.

Yillar o'tib tengdoshlaring o'z sevgan kasbini ilg'or mutaxassisi bo'lib yetishganini ko'rib bazan o'zingda iftixor tuyg'usini tuyasan inson. O'rtoqlarim orasida biri shifokor, biri muallim, biri tarbiyachi,biri DSENM xodimi, biri muhandis,biri tadbirkor,xullas, har bir kasb korda ularni uchrataman va faxrlanaman.

O'rtoqlarimni ko'plari ota onasini kasbini olgan, xozirda o'z yo'llarini topib,

qolaversa, farzandlarini ham o'z yo'lidan borishiga namuna bo'lib ishlab faoliyat yuritib kelishmoqda. Men ham ota-onam kabi ta'lim sohasida ishlab kelmoqdaman. Yoshlik chog'imdanoq shu niyatni oldimga maqsad qilib qo'yanman va shu maqsadimga erishdim. Axir aytishadi-ku, intilganga tole yor deb. Har bir insonni meningcha o'z oldiga bir maqsadi bo'ladi va o'sha maqsadiga qarab intiladi. Meningcha, maqsadsiz inson bo'lmasa kerak yoki bo'lsa ham u inson uchun hayotning qizig'i qolmaydi.

Shunday maqsadni o'z oldiga qo'yanlardan bir o'rtog'imni bilaman, u meni partadoshim qadrdon dugonam Xojimirzayeva Muxayyoxon.

O'rtog'im maktabda har doim kasblar haqida so'ralgan " Kim bo'lmoqchisan" , " Men tanlagan kasb" , " Kelajakdagi orzuim" , kabi mazmundagi olingan insholar va so'rovnomalarda har doim bir hil javob yozar edi, yani men kelajakda yurist bo'laman deb yozar edi.

O'rtog'im mana qariyib 32 yildan buyon o'zi yoqtirgan kasbini egasi bo'lib kelmoqda.

O'rtog'im xozirda Paxtaobod tuman jinoyat sudining devonxona mudiri bo'lib faoliyat yuritib kelmoqda.

Shu kungacha bir qancha yutuqlarga erishib, orden va medallar sohibasi bo'lib kelmoqda. Yutuq va faxriy yorlig'larni Respublika sudi tomonidan ham berilganlari borligiga qaramasdan, o'rtog'im o'sha o'sha o'z kasbini sevguvchi insonlardan hisoblanadi.

Har qanday kasb mehnatsevarlik, mas'uliyat, odob-axloq kabi aniqlovchi fazilatlarini talab qiladi va har qanday kasbda eng muhimi, o'z ishiga bo'lgan samimiy muhabbatdir.

Farzandlarimizni kasb tanlashida e'tiborli bo'laylik, farzandlar kelajagimiz mana aytib o'tgan insonimning farzandlari ham o'z yo'llarini tanlab olgan va o'z kasbiga ega bo'lib ishlab kelmoqda.

Aziz odamlar farzandimizni kamolini ko'rish niyatimiz bo'lsa, ularni eshitaylik o'rganaylik, qo'lidan keladigan ishidan qaytarmaylik uni qiziqishlarini sovutmaylik.

Mayli rassom, mayli raqqosa, qo'shiqchi bo'lsin, mayli o'z xoliga qo'ying sartaosh bo'lsin, tamaddixonaning eng zo'ri oshpazi bo'lsin, mayli tadbirkor bo'lib uylar qurishsin, chiroyli mebellar yasovchi duradgor bo'lsin, mayli dizayner bo'lib hamma joyni langshaft qilib yashnatib bezatsin, qo'rqitmang shifokor bo'laman desa, qaytarmang axtidan tish solaman desa, posbon bo'laman deb ko'ksini kersa, xursand bo'ling bolangiz yurtini sevsa, qiziqsa bolangiz hayvon boqishga, xarakat qiling u uchun mosini olib berishga.

Bilamiz shunday amallarni qilib kelayotgan yoshlar borligin. Xattoki xashoratga e'tibor bergan bolani sezib qolsangiz, unga tabiat kitobin bering. Xa aytsamu yozsam tugamas, dunyoda 4000 dan ziyod kasbu hunar bor, faqat ota ona bolasin qo'llab tursa

bas.

Inson olloh ne‘matidir har bir insonni taqdiriga umri va rizqini bitib qo‘yilgan.

Ota ona bo‘lish katta baxt va bu baxtni davom ettirish yana ota ona qo‘lida ollohdan so‘rab farzandimizni kasb tanlashida ko‘maklashsak, kelajakda o‘zimizga rohat bo‘ladi.

Men so‘zimni oxirida o‘rtog‘imni aytgan gap so‘zlarini bayon qilsam, u...

Men tanlagan kasbimdan faxrlanaman sababi o‘z ishimni yaxshi ko‘raman deb takidlab qo‘ydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.– .: Sharq nashriyot – matbaa konserni, 1997
3. Dilfuza MADRIMOVA, Xiva shahridagi 11-umumta’lim maktabining amaliyotchi psixologi. “MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASB TANLASH DOLZARB PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA”
4. www.ziyonet.uz